

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING AHAMIYATI

Begmatova Shaxnoza Sharobiddinovna

Andijon viloyati Oltinko'l tumani

28- umumta'lim maktabi boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati, hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash, boshlang'ich sinfda ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishda axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga tayyorligini oshirish to'g'risida to'liq bayon etilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim tizimi, zamonaviy yondashuvlar, interfaol metodlar, axborot texnologiyalarini, inklyuziv ta'lim.

Kirish: Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda ta'lim sifat samaradorligini takomillashtirishda zamonaviy yondashuv - o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra, ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan, u yoki bu tasnifga aloqador bo'ladi. Ularning samaradorligi haqida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini yo'lga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash hamma ta'lim muassasalarining oldiga qo'yilayotgan maqsadga qanchalik erishilayotganini nazarda tutish zarur. Bundan tashqari, o'qitish metodlari bevosita ta'lim amaliyoti bilan aloqador konsepsiya sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida o'tkazilayotgan tub islohotlarning mohiyati hozirgi vaqtida ta'lim jarayonini loyihalashga yangicha yondashuv bilan boyib bormoqda. Ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lim jarayonini aniq vositalar orqali samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifat samaradorligini takomillashtirishda zamonaviy yondashuv –vaqt taqsimotiga muvofiq

dasturlanib, ilmiy tomondan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning hamma bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lif jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida foydalanishga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zлari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish hamda yakuniy xulosalarni ham o'zлari keltirib chiqarishga o'rgatadi.

Natijalar: Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi asosan o'quvchi shaxsini fikrlashga, boshqalarning fikrini anglash va shu fikrni og'zaki, shuningdek yozma shaklda savodli bayon qila olishga o'rgatish masalasiga e'tibor berilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rinnegallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi. Davlatimizda yangi axborot texnologiyalarini jadallik bilan takomillanishi va amaliyatga tatbiq qilinishi natijasida zamonaviy bola shaxsining rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Hozirgi vaqtda an'anaviy o'qituvchi - o'quvchi darslik sxemasiga yangi bo'g'in kompyuter, maktab ta'limga kompyuter vositasida o'qitish tushunchalari kirib keldi. Ta'lifni axborotlashtirishning muhim shartlaridan biri mакtabda fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanishdir.

Muhokama: Boshlang'ich ta'limda darslarni shu asosda tashkil qilish, dastlab, o'qituvchining innovatsion faoliyatiga, ijodiy tafakkuriga aloqadordir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quv texnologiyasining bevosita yetkazuvchisi sifatida yangiliklardan boxabar bo'lgani ravishda dars jarayonini qiziqarli olib borishi kerak. Dars berayotgan sinfiga aloqador didaktik materiallarni, darsliklarni, uslubiy qo'llanmalarni va elektron o'quv vositalarini ham mukammal o'rganishi, ularni darslarda foydalana olishi lozim. Boshlang'ich sinfda ta'lif va tarbiya samaradorligiga erishishda, birinchi o'rinda, o'quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga tayyorligi va keyinchalik mustaqil ta'lif olishlarida ular asosida qo'lga kiritgan axborotlardan foydalanishga qodirligi nazarda tutiladi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda boshlang'ich

sinf o'qituvchilari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilim berish amaliyotida turli xil maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqishi, dastlabki o'rinda o'quv-tarbiyaviy jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi juda muhimdir. Darslarni kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'tish yordamida ularni yanada qiziq va puxta tashkil etilishiga, shuningdek o'quvchilarning butun diqqat-e'tiborini aniq maqsadga qaratishga erishiladi.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, boshlang'ich ta'lif samaradorligini oshirish shunchaki ta'lim tizimiga ko'proq mazmun qo'shish yoki bosimni oshirish emas. Bu har bir bolaga o'z potentsialini to'liq ro'yobga chiqarishga imkon beradigan qiziqarli, inklyuziv va dinamik ta'lim muhitini yaratish sanaladi. Zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirib, yosh o'quvchilar murakkab va doimiy o'zgaruvchan dunyoda rivojlanish uchun ko'nikma, bilim va chidamlilik bilan jihozlangan yorqin kelajakka sarmoya kiritish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'roqov Sh. Ta'lif muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari//Xalq ta'limi. – Toshkent: 2016,
2. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integrasiyalashgan pedagogika. TDPU, 2007.
3. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – T., 2001.
4. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda qiziqishlarni o'rganish. T., TDPU. 2008.